

**MAVZU: SHAXSIY HAYOT DAXLSIZLIGI HUQUQI VA UNI  
HIMOYA QILISH XUSUSIYATLARI**

Shaxsiy hayot daxlsizligi har bir insonning huquqi bo‘libgina qolmay, balki erkin, o‘zi istaganidek turmush kechirishi uchun zarurat hamdir. Inson mazkur huquqdan foydalanishda o‘zining har tomonlama himoya qilinganligiga, hayotining muhofazalanganligiga ishonch hosil qilsagina unga berilgan shaxsiy hayot daxlsizligi huquqi yuqori darajada ta‘minlangan bo‘ladi. Bugungi kunda mamlakatimizda inson va uning huquqlari ta‘minlanishiga alohida e‘tibor berilmoqda, buni so‘nggi yillarda Prezidentimiz tomonidan har bir yilning nomlanishidan ham bilish mumkin. Insonning shaxsiy hayot daxlsizligini ta‘minlash barcha rivojlangan davlatlar uchun muhim vazifa hisoblanadi, chunki erkin, uning shaxsiy hayotiga aralashuvlarning bo‘lmasligi, tinch yashashini ta‘minlab bersa, fuqarolarning hayotini daxlsizligini ta‘minlab berish demokratiyaning asosiy ko‘rsatkichi hisoblanadi deyish mumkin. Jamiyatimizda inson huquqlari, erkinliklari ta‘minlanmas ekan, taraqqiy etib bo‘lmaydi.

Internet tarmog‘i raqamli texnologiyalarning eng muhim qismi deb atash mumkin. Bu orqali odamlar masofadan turib ishlashi, o‘qishi, kosmosda ham tekshiruvlar olib borishi, uyali aloqa vositalaridan foydalanishi va boshqa deyarli barcha ishlarda foydalanishi va boshqarishi mumkin. Internet insonlarning hayotida muhim bir tarkibiy qismga aylanib, bu narsasiz inson hayotini tasavvur qilish qiyin bo‘lib qoldi. 2022-yil aprel oyining statistik ma‘lumotlariga qaraydigan bo‘lsak, internetdan foydaluvchilari soni 5 milliarddan ziyodni, turli xil ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari esa 4,7 milliard ni tashkil etmoqda.

Daxlsizlikni buzish tahdidi bugungi kunda juda keng tarqalgan bo‘lib, ayniqsa, huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan tezkor qidiruv faoliyatida( masalan, tezkor qidiruv, tintuv, yozishmalar va telefon suhbatlarini eshitish, kuzatuv kameralari), soliq organlarining ish ma‘lumotlarni majburiy tartibda yig‘ilishi, tibbiy ma‘lumotlarning yig‘ilishi, bank ma‘lumotlari (hisob raqamlar, kreditlar tarixi, karta raqamlari), ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish, kuzatuv kameralari va boshqa shu kabi raqamli texnologiyalarda ko‘plab mavjud.

“Shaxsiy hayot” tushunchasi Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish to‘g‘risidagi Evropa konvensiyasi (1950), Inson huquqlari bo‘yicha Evropa sudi (1992) tomonidan tayyorlangan bayonotda aniq me‘yoriy talqinni oldi:

"Shaxsiy hayot - bu keng qamrovli toifa bo‘lib, unga to‘liq ta‘rif berib bo‘lmaydi. Har bir inson ushbu kontseptsiyani ishlab chiqishda va uni ma‘lum bir ma‘no bilan to‘ldirishda erkindir. Shaxsiy hayot tushunchasini “ichki doira” bilan cheklash va bu doiraga kirmagan tashqi dunyoni butunlay chiqarib tashlash joiz emas. Shunday qilib, shaxsiy hayot tushunchasi boshqa shaxslar va tashqi dunyo bilan munosabatlarni o‘rnatish huquqini o‘z ichiga oladi.

Ushbu bayonotda shaxsiy hayotga doir umumiy jihatlar keltirib o‘tilgan bo‘lib, uning xususiy jihatlari shaxsiy hayotning ichki doirasi qamrab oladigan jihatlari mavhumligicha qolgan deyishimiz mumkin.

“Shaxsiy hayot” tushunchasi haqida aniq bir fikr, to‘xtam mavjud emasligini yuqorida ta’kidlab o‘tdik, endilikda biz “shaxsiy hayot” tushunchasi haqida olimlarning fikriga e’tibor qaratamiz.

Mamlakatimizda ushbu sohada tadqiqot olib brogan F.H. Madiyev va H.N.Safarovalarning fikriga ko‘ra, ““shaxsiy hayot” – har bir shaxsning Konstitutsiya bilan himoya qilinadigan, davlat, jamiyat va boshqa shaxslar aralashmaydigan, shaxsiy, oilaviy, jinsiy va fuqarolik munosabatlarga kirishishga nisbatan bo‘lgan huquq hisoblanadi” deb izoh bergan va shaxsiy hayot huquqini bir qancha oshkor etilmasligi shart deb hisoblangan sirlar tashkil etishini va ushbu sirlarni ikkita katta guruhga bo‘lish mumkinligini ta’kidlab o‘tgan. Bular quyidagilar hisoblanadi:

- Shaxsiy (hech kimga oshkor etilmaydigan) sirlar;
- Kasbiy (fuqarolar huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish yuzasidan ma’lum kasb egalariga oshkor qilinishi mumkin bo‘lgan ) sirlar.

Shaxsiy sirlarga quyidagilarni ajratib o‘tishgan:

- ijob va munosabatlar;
- oila;
- turar joy;
- kundaliklar, shaxsiy hujjatlar;
- pochta-telegraf jo‘natmalari;
- telefon so‘zlashuvlari kiradi
- Kasbiy sirlarga quyidagilar kiradi:
- sud himoyasi va vakillik;
- dastlabki tergov;
- bank sirlari;
- tibbiyot;
- notarial harakatlar;
- farzand asrab olish;
- fuqarolik holatini qayd etish sirlari.

V. Smolkovaning fikricha, "shaxsiy hayot" tushunchasi uchun huquqiy mazmun yo‘q. Shaxsiy hayot – bu shaxsning o‘zi tomonidan boshqariladigan jismoniy va ma’naviy soha. U odamlar o‘rtasida rivojlanadigan va ko‘p jihatdan huquq normalari bilan emas, balki ularning psixologiyasining o‘ziga xos xususiyatlari va jamiyatda mavjud bo‘lgan axloqiy tamoyillar bilan belgilanadigan munosabatlarni o‘z ichiga oladi, birinchi navbatda, bunday munosabatlarni rasmiylashtirish, huquqiy

munosabatlar doirasiga qo‘shish qiyin. Bundan tashqari, inson tabiatan jamiyat va davlatdan ma’lum bir erkinlikka muhtoj.

Ularning ba’zi fikrlariga qo‘shilish mumkin, chunki kimdir shaxsiy hayot bo‘lgan, kimdir uchun esa shaxsiy hayot hisoblanmagan munosabatlarni qonunchilikka qo‘shish qiyinchilik tug‘diradi, lekin qonunchilikka shaxsiy hayot huquqiy tushunchasini kiritmas ekanmiz insonlarning shaxsiy hayot daxlsizligini ta’minlab bo‘lmaydi, chunki shaxsiy hayot haqidagi aniq bir ta’rif bo‘lmas ekan, shaxsning shaxsiy hayotiga aralashuvlar, uning hayotiga to‘sqinlik qilishlar ko‘payadi va buning natijasida inson ruhiy yoki jismoniy zarar ko‘radi. Qonunchilikda “shaxsiy hayot” tushunchasiga aniq bir ta’rifning yo‘qligi muhim bir kamchilikdir. Bu haqida Rossiyalik Jinoyat huquqi va protsessual sohasidagi tergovchilar ,xususan, N.P.Lepeshkina shunday deb yozadi: "agar qonun chiqaruvchi "shaxsiy hayot" atamasi bilan nimani nazarda tutayotgani haqida aniq tasavvurga ega bo‘lmasa, biz jinoiy himoyaga nima tegishli ekanligini aniqlay olmaymiz. Qonunning vazifasi jinoyatga qarshi kurashish, boshqa odamlarning salomatligi va xavfsizligini himoya qilish manfaatlarini ko‘zlab, shaxsning shaxsiy hayotiga aralashish tartibini to‘liq belgilashdan iborat ." Rossiya Konstitutsiyasiga sharhda “ "Shaxsiy hayot" tushunchasi inson hayotining bir shaxsга tegishli bo‘lgan sohasini o‘z ichiga oladi, faqat unga tegishli va agar u noqonuniy bo‘lmasa, jamiyat va davlat tomonidan nazorat qilinmaydi” .

Yuqoridagilarga asoslanib shaxsiy hayot daxlsizligi tushunchasi haqida shunday fikrga kelish mumkinki, shaxsiy hayot daxlsizligi – davlat, jamiyat, shaxslar va tashkilotlar tomonidan hech qanday aralashilmaydigan shaxsning shaxsiy, oilaviy va kasbiy sirlar va ma’lumotlarni o‘z ichiga oluvchi hamda bular orqali turli huquq sohalorida bilan har xil munosabatlarga kirishadigan va Konstitutsiya hamda qonunlar bilan himoya qilinadigan insonning huquqi hisoblanadi.

Shaxsiy hayot deganda jismoniy shaxsning o‘zi tomonidan olib boriladigan, tashqi ta’sirdan xoli bo‘lgan uning jismoniy va ruhiy hayoti tushuniladi. Ya’ni, shaxsiy hayot bu oilaviy, maishiy muhit, oila a’zolari, lavozimi, millati, kimning qayerda ishlashi, qayerda nima ovqat yeyishi, muloqot muhitida do‘stlari, tanishlari, ishqiy munosabatlari, diniy munosabati, ish yoki o‘qishdan xoli mashg‘uloti, shaxsiy qiziqishlari va boshqalar nazarda tutiladi. Shu bilan birga, shaxsiy va oilaviy sirlar ham mazkur shaxsiy hayot doirasidagi asosiy elementi bo‘lib, u boshqalarga oshkor qilishdan saqlanadigan ma’lumotlarni tashkil qiladi. Masalan, shaxsiy va oilaviy sir sifatida farzandlikka olish sirini, er-xotinning o‘zaro hayotini, o‘zaro mulkiy va shaxsiy nomulkiy munosabatlarini, boshqa shaxslar bilan yashirin munosabatlari nazarda tutiladi. Demak, shaxsiy hayotga doir yuqoridagi ma’lumotlar, shu jumladan shaxsiy va oilaviy sir saqlanadigan ma’lumotlar qonun bilan qo‘riqlanadi. Ular faqat shaxsning roziligi bilangina (qonunda belgilangan istisnolar mavjud, masalan, jinoyat ishi

doirasida, boshqa shaxs huquqini buzganda va hokazo holatlarda) olinishi, saqlanishi va tarqatilishi mumkin.

Shaxsiy hayot daxlsizligi huquqi – bu shaxsning qonun bilan qo‘riqlanadigan o‘z xatti-harakatlarini erkin belgilash, davlat va jamiyatdan muayyan mustaqillik, o‘zi va xatti-harakatlari, shaxsiy va oilaviy sirlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni erkin tasarruf etish, shaxsiy makoniga, o‘z uy-joyiga, shaxsiy ma‘lumot makoniga kirish, aloqa xabarlarining maxfiyligi uning xohishiga qarshi kirish imkoni bo‘lmagan, davlat tomonidan himoya kafolatlangan sub‘ektiv huquqidir.

Shaxsiy hayot daxlsizligi – bu insonning tug‘ilganidan boshlab vujudga keladigan va hech kim tomonidan aralashilishiga yo‘l qo‘yilmaydigan insonning hayotiy turmush tarzi hisoblanadi.

Shaxsiy hayot daxlsizligi huquqi bugungi kunda qonunchilik tizimida alohida o‘rin tutadi, shu sababli uning himoyasiga ko‘proq urg‘u beriladi.

Jumladan, “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi” ning (1948-yil, 10-dekabr) muqaddimasi “Insoniyat oilasining hamma a‘zolariga xos qadr-qimmat va ularning teng, ajralmas huquqlarini tan olish erkinlik, adolat va yalpi tinchlik asosi” deya boshlanadi, ya’ni shaxsiy hayot daxlsizligi huquqi ham uning ajralmas huquqlari sirasiga kiradi. “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi” ning 1-moddasida “Hamma odamlar o‘z qadr-qimmatini hamda huquqlarida erkin va teng bo‘lib tug‘iladilar” va O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida “ barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo‘lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, e‘tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy mavqeyidan qat’i nazar, qonun oldida tengligi, ularning huquq va erkinliklari davlat tomonidan e‘tirof etilishi, kafolatlanishi” belgilangan, biroq shunday bo‘lsa-da Inson o‘z huquq va erkinliklarini amalga oshirishda boshqa shaxslarning, jamiyat hamda davlatning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga putur yetkazmasligi shartligi belgilangan. Bundan shuni tushunish mumkinki, inson huquq va erkinliklarini amalga oshirishda hamma narsa mumkin deganimas, u boshqa shaxslarning huquqlariga, misol uchun, shaxsiy hayotiga aralashuvlar, uning shaxsiy yoki oilaviy sirini tarqatishi mumkinmas yoki davlat tomonidan o‘rnatilgan qonun normalarini buzgan holda ularni amalga oshirolmaydi.

Insonning shaxsiy hayoti daxlsizligi haqida xalqaro normalarning eng asosiylaridan biri “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi” ning 12-moddasida “Hech kimning shaxsiy va oilaviy hayotiga o‘zboshimchalik bilan aralashish, uy-joyi daxlsizligiga, uning yozishmalaridagi sirlarga yoki uning nomus va sha’niga o‘zboshimchalik bilan tajovuz qilinishi mumkin emas. Har bir inson xuddi shunday aralashuv yoki tajovuzdan qonun orqali himoya qilinish huquqiga ega.”

Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt (1966 yil 19 dekabr)ning 17-moddasida “Hech kim o‘zining shaxsiy va oilaviy hayotiga o‘zboshimchalik yoki noqonuniy tarzda aralashishga, o‘zining uy-joyi yoki

yo'zishmalari siri daxlsizligiga o'zboshimchalik yoki noqonuniy tarzda tajovuz qilinishiga yoki uning or-nomusi va sha'niga noqonuniy tajovuz qilinishiga duchor etilishi mumkin emas. Har bir inson xuddi shunday aralashuv yoki tajovuzlardan qonun orqali himoya etilish huquqiga ega."

Ushbu xalqaro normalar yer yuzidagi deyarli barcha mamlakatlar tomonidan ratifikatsiya qilingan. Bizning mamlakatimiz Konstitutsiyani yaratishda ushbu xalqaro huquq normalaridan andoza olgan holda insoning shaxsiy hayoti daxlsiz ekanligi haqida normani bosh qomusimizda belgilab qo'ygan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31-moddasida "Har bir inson shaxsiy hayotining daxlsizligi, shaxsiy va oilaviy sirga ega bo'lish, o'z sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish huquqiga ega.

Har kim yo'zishmalari, telefon orqali so'zlashuvlari, pochta, elektron va boshqa xabarlari sir saqlanishi huquqiga ega. Ushbu huquqning cheklanishiga faqat qonunga muvofiq va sudning qaroriga asosan yo'l qo'yiladi.

Har kim o'z shaxsiga doir ma'lumotlarning himoya qilinishi huquqiga, shuningdek noto'g'ri ma'lumotlarning tuzatilishini, o'zi to'g'risida qonunga xilof yo'l bilan to'plangan yoki huquqiy asoslarga ega bo'lmay qolgan ma'lumotlarning yo'q qilinishini talab qilish huquqiga ega.

Har kim uy-joy daxlsizligi huquqiga ega.

Hech kim uy-joyga unda yashovchi shaxslarning xohishiga qarshi kirishi mumkin emas. Uy-joyga kirishga, shuningdek unda olib qo'yishni va ko'zdan kechirishni o'tkazishga faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibda yo'l qo'yiladi. Uy-joyda tintuv o'tkazishga faqat qonunga muvofiq va sudning qaroriga asosan yo'l qo'yiladi."

Konstitutsiya va qonunlarga ko'ra har bir shaxsga o'z ixtiyoriga ko'ra, o'zining shaxsiy ehtiyojlaridan kelib chiqib shaxsiy erkinligi va shaxsiy hayot daxlsizligini cheklamaydigan, xatti-harakatlarni tanlash va uni amalga oshirish imkoniyati huquqiy jihatdan kafolatlangan. Akademik Akmal Saidov ta'kidlashicha, huquqiy kafolat inson huquqi, erkinliklari va majburiyatlarining huquq normasida qayd etilishi, davlat va xalqaro hamjamiyat institutlarining huquqni muhofaza qilish faoliyati bilan ularning ta'minlanishi, saqlanishi va himoyasini tushunish mumkin. Huquqiy kafolatlar qonunda belgilangan vositalar, umumiy shartlarning ifodasi hisoblanib, bevosita inson huquqlarini jamiyatda huquqiy jihatdan to'g'ri amalga oshirishni va ularning muhofaza qilish imkoniyatini ta'minlaydi. Davlat qonun ustuvorligiga erishish uchun insonning asosiy huquqlarini ta'minlashning maxsus mexanizmlariga ega bo'lishi kerak. Yuridik fanda nisbatan yaxshi yo'lga qo'yilgan huquqiy tartibga solish mexanizmga asoslanib, insonning asosiy huquqlaridan biri hisoblangan shaxsiy hayot daxlsizligini ta'minlashning konstitutsiyaviy-huquqiy mexanizmi konstitutsiyaviy va huquqiy vositalarning qanchalik ishlayotganligida ko'rinadi.

Bugungi kunda jamiyatda texnika va texnologiyalarning jadal suratlar bilan rivojlanib borishi shaxsiy hayot daxlsizligi huquqini kafolatlarini ta'minlash masalalari tobora dolzarblik ahamiyatini ko'rsatmoqda. Shaxsiy ma'lumotlarning maxfiylikni qonun bo'yicha himoya qilish jismoniy shaxslar, tijorat tashkilotlari, davlat idoralari, huquqni muhofaza qilish organlari va davlat xavfsizlik xizmatlari manfaatlaridan kelib chiqqan holda shakllantirildi. Shaxsiy ma'lumotlarni to'playdigan va ishlatadigan korporatsiyalar uchun endi insonlarning shaxsiy daxlsizligi, oilaviy sirlariga oid ma'lumotlari aks etgan qonunchilikka e'tibor bermaslik va ularga rioya etmaslik huquqiy oqibatlarni keltirib chiqara boshladi. Endilikda mamlakatimizda qabul qilingan yangi tahrirdagi konstitutsiyada ham bu yanada tartibga solinib, shaxsga doir tintuv va telefon eshitish doirasi ham sud tomonidan belgilanishi, bunga qay darajada zaruriyat borligi xolis va mustaqil sudya tomonidan baholanishi belgilanmoqda. Yangilangan Konstitutsiya, 31-modda: "Har bir inson shaxsiy hayotining daxlsizligi, shaxsiy va oilaviy sirga ega bo'lish, o'z sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish huquqiga ega. Har kim yozishmalari, telefon orqali so'zlashuvlari, pochta, elektron xabarlari hamda boshqa xabarlari sir saqlanishi huquqiga ega. Ushbu huquqning cheklanishiga faqat qonunga muvofiq va sudning qaroriga asosan yo'l qo'yiladi. Har kim o'z shaxsiga doir ma'lumotlarni himoya qilish, shuningdek noto'g'ri ma'lumotlarning tuzatilishini, o'zi to'g'risida qonunga xilof yo'l bilan to'plangan yoki huquqiy asoslarga ega bo'lmay qolgan ma'lumotlarning yo'q qilinishini talab qilish huquqiga ega. Har kim uy-joy daxlsizligi huquqiga ega. Hech kim uy-joyga unda yashovchi shaxslarning xohishiga qarshi kirishi mumkin emas. Uy-joyga kirishga, shuningdek unda olib qo'yishni va ko'zdan kechirishni o'tkazishga faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibda yo'l qo'yiladi. Uy-joyda tintuv o'tkazishga faqat qonunga muvofiq va sudning qaroriga asosan yo'l qo'yiladi" deya mustahkamlab qo'yilgan. Shu bilan birga yangi qabul qilingan Konstitutsiyaga ko'ra: hech kim sudning qarorisiz uy-joyidan mahrum etilishi mumkin emasligi hamda uy-joyidan mahrum etilgan mulkdorga uy-joyning hamda u ko'rgan zararlarning o'rni qonunda nazarda tutilgan hollarda oldindan hamda teng qiymatda qoplanishi ta'minlanishi mustahkamlanmoqda. Mazkur normani Konstitutsiyaga kiritilishi bir necha yillardan buyon jamiyatimizda o'tkir muammolardan biriga aylangan «snos» bilan bog'liq muammoga nisbatan xalqparvar, mulkdorlar manfaatini himoya qiluvchi oqilona yechim ekanligini alohida qayd etish lozim. 27-moddasiga ko'ra: Har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega. Hech kim qonunga asoslanmagan holda hibsga olinishi, ushlab turilishi, qamoqqa olinishi, qamoqda saqlanishi yoki uning ozodligi boshqacha tarzda cheklanishi mumkin emas. Hibsga olishga, qamoqqa olishga va qamoqda saqlashga faqat sudning qaroriga ko'ra yo'l qo'yiladi. Shaxs sudning qarorisiz qirq sakkiz soatdan ortiq muddat ushlab turilishi mumkin emas. Shaxsni ushlab chog'ida unga tushunarli tilda uning huquqlari va ushlab turilishi asoslari

tushuntirilishi shart. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining 2002-yil 12-dekabrda 439-II-sonli “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunining 13-moddasida “Jismoniy shaxsning rozilgisiz uning shaxsiy hayotiga taalluqli axborotni, xuddi shuningdek shaxsiy hayotiga taalluqli sirini, yozishmalar, telefonda so‘zlashuvlar, pochta, telegraf va boshqa muloqot sirlarini buzuvchi axborotni to‘plashga, saqlashga, qayta ishlashga, tarqatishga va undan foydalanishga yo‘l qo‘yilmaydi”, O‘zbekiston Respublikasining 2007-yil 15-yanvardagi O‘RQ-78-sonli “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi Qonunining 6-moddasida “Ommaviy axborot vositalari orqali fuqarolarning sha’ni va qadr-qimmatini yoki ishchanlik obro‘sinini tahqirlash, shaxsiy hayotiga aralashish taqiqlanadi”, O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-iyuldagi O‘RQ-547-sonli “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”gi Qonunining 28-moddasida “Subyektning rozilgisiz yoki boshqa qonuniy asos mavjud bo‘lmagan holda shaxsga doir ma’lumotlarni oshkor etish va tarqatishga yo‘l qo‘yilmasligi to‘g‘risida mulkdor va (yoki) operator yoki shaxsga doir ma’lumotlardan foydalanishga ruxsat olgan boshqa shaxs tomonidan rioya etilishi majburiy bo‘lgan talab shaxsga doir ma’lumotlarning maxfiyligidir. Mulkdor va (yoki) operator hamda shaxsga doir ma’lumotlardan foydalanishga ruxsat olgan boshqa shaxslar subyektning rozilgisiz shaxsga doir ma’lumotlarni uchinchi shaxslarga oshkor etmasligi va tarqatmasligi shart” kabi normalar mavjud. Afsuski, hozirgi kunda fuqarolar tomonidan ushbu tartib-qoidalarga rioya qilmaslik natijasida ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda insonlarning shaxsiy hayotiga tegishli ma’lumotlar, xabarlar va shuning asosida xulosalar tarqatish uchramoqda. Bu esa shaxslarning shaxsiy hayot daxlsizlik huquqining buzilishining bir elementi sifatida qarashimiz mumkin. Bunday holatlarni huquqiy himoya qilish asoslari daxlsizlikni himoya qilishning belgilari sifatida ko‘rishimiz mumkin. Ushbu holatlar esa, tegishli huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksga asosan shaxsning shaxsiy yoki oilaviy sirini tashkil etuvchi shaxsiy hayoti to‘g‘risidagi ma’lumotlarni uning rozilgisiz qonunga xilof ravishda yig‘ish yoki tarqatish kabi javobgarliklarga va bu qilmish ma’muriy jazo qo‘llanilgandan keyin yana sodir etilgan hollarda jinoiy javobgarlikka sabab bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksining 18-moddasiga asosan: Jinoyat ishini yuritish uchun mas’uliyatli barcha davlat organlari va mansabdor shaxslar jinoyat protsessida qatnashayotgan fuqarolarning huquq va erkinliklarini muhofaza qilishlari shart. Hech kim sud qaroriga asoslanmagan holda hibsga olinishi yoki qamoqda saqlanishi mumkin emas. Sud va prokuror qonunga xilof ravishda ozodlikdan mahrum etilgan yoki qonun yoxud sud hukmida nazarda tutilganidan ortiq muddat hibsdan ushlab turilgan yoki qamoqda saqlangan yoxud uy qamog‘ida bo‘lgan har qanday shaxsni darhol ozod qilishi shart. Fuqarolarning shaxsiy hayoti, ularning turar joylari daxlsizligi, o‘zaro yozishmalari, telegraf aloqalari va telefon orqali

so‘zlashuvlarining sir saqlanishi qonun bilan qo‘riqlanadi. Shaxs egallab turgan turar joy yoki boshqa bino va hududda tintuv o‘tkazish, olib qo‘yish, ko‘zdan kechirish, aloqa muassasalarida pochta-telegraf jo‘natmalarini xatlab qo‘yish va ularni olib qo‘yish, telefonlar va boshqa telekommunikatsiya qurilmalari orqali olib boriladigan so‘zlashuvlarni eshitib turish, ular orqali uzatiladigan axborotni olish faqat ushbu Kodeksda belgilangan hollarda va tartibda amalga oshirilishi mumkin ekanligi mustahkamlab qo‘yilgan.

Shuningdek, shaxsning erkinligi va daxlsizligining himoya qilish va kafolatlarining huquqiy belgilaridan biri sifatida O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 234-moddasida qonunga xilof ravishda ushlab turish yoki hibsga olish uchun jinoiy javobgarlik belgilanganligidan ham ko‘rishimiz mumkin. Bunda shaxsning qonuniy asoslarsiz amalga oshirilgan bu kabi ushlab turish, hibsga olish va qamoqda saqlab turish jinoyat sifatida tan olinadi. Shuningdek, mazkur qilmishning ijtimoiy xavfliligini hamda odil sudlovni amalga oshirish sohasida faoliyat ko‘rsatadigan va shaxs daxlsizligini ko‘rsatadigan va shaxs daxlsizligini kafolatlaydigan munosabatlar jinoyat huquqiga oid himoyalash zaruriyatini aniqlab beradi. Mohiyatan mazkur modda ikki qismdan iborat ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Ushlab turish bu jinoyat sodir etishda gumon qilinayotgan shaxsning jinoyatga aloqadorligini va zarur hollarda uni qamoqqa olish masalasini hal etishda shaxsga nisbatan qo‘llaniladigan shaxsning huquq va daxlsizligini qisqa muddatlarga cheklaydigan jinoyat-protsessual majburlov chorasi tushuniladi. Ushlab turish jinoyat ishi qo‘zg‘atilgunga qadar ham, ish qo‘zg‘atilganidan keyin ham amalga oshirilishi mumkin. So‘nggi holda ushlab turishga faqat tergovchi, surishtiruvchi, prokurorning qaroriga yoki sudning ajrimiga muvofiq yo‘l qo‘yiladi. Qonuniy tartibda shaxsni ushlab turish tartibi Jinoyat protsessual kodeksining 221-moddasiga muvofiq, jinoyatni sodir etishda gumon qilingan shaxs quyidagi asoslar mavjud bo‘lganda ushlab turilishi mumkin bo‘lib ular quyidagilardan iborat:

- shaxs jinoyat ustida yoki bevosita uni sodir etganidan keyin qo‘lga tushsa;
- jinoyat guvohlari, shu jumladan jabrlanuvchilar uni jinoyat sodir etgan shaxs tariqasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘rsatsalar;
- uning o‘zida yoki kiyimida, yonida yoki uyida sodir etilgan jinoyatning yaqqol izlari topilsa;
- shaxsni jinoyat sodir etishda gumon qilish uchun asos bo‘ladigan ma’lumotlar mavjud bo‘lib, u qochmoqchi bo‘lsa yoki doimiy yashaydigan joyi yo‘q yoxud shaxsi aniqlanmagan bo‘lsa.

Qonunga xilof ravishda ushlab turish deganda, JPK 221-moddasida nazarda tutilgan qonuniy asoslar mavjud bo‘lmagan va qonun shartlarini buzgan holda qisqa muddatli ozodlikdan mahrum qilishni tushuniladi. Qonuniy asoslar mavjud bo‘lmaganligi



nafaqat ushlab turish uchun asoslarning mavjud bo‘lmasligi, balki uni davom ettirish bilan bog‘liq

asoslar yo‘qligi bilan ham izohlanadi, masalan, jinoyat sodir etilganligi to‘g‘risidagi gumon o‘z tasdig‘ini topmaganda. Qo‘zg‘atilgan jinoyat ishi doirasida tegishli qaror chiqarmasdan ushlab turishni amalga oshirish ham qonuniy asoslarsiz ushlab turish deb baholanadi. Bundan tashqari, JPK muayyan doiraga kiruvchi shaxslarni ushlab turishga nisbatan immunitet belgilaydi, xususan, deputatlar, sudyalalar, prokurorlar jinoyat ustida yoki uni sodir qilib bo‘lgan zahoti qo‘lga olinganlarida ushlab turilishlari mumkin. Mazkur shaxslarning boshqa asoslarga ko‘ra ushlab turilishini ham qonuniy asoslarsiz ushlab turish sifatida baholash lozim. Shuningdek, diplomatik immunitetdan foydalanayotgan shaxslarni ham ushlab turish noqonuniy ushlab turish sifatida baholanishi lozim. Bunda deputat, sudya yoki prokurorning immunitetidan farqli o‘laroq, diplomatik immunitetga ega shaxs har qanday asos mavjud bo‘lgan taqdirda ham ushlab turilishi mumkin emas. Ayblanuvchi yoki gumon qilinuvchi shaxsga nisbatan qonunda ko‘rsatilgan asoslar, shuningdek, alohida shaxslarga nisbatan qo‘shimcha shartlarga amal qilmagan holda va qonunda belgilangan protsessual shaklga rioya etmagan tarzda tanlansa, shaxsning daxlsizligini buzgan holda qonunga xilof ravishda hibsga olish deb topiladi. Jinoyat-protsessual qonunchiligida nazarda tutilgan alohida hollardan tashqari hibsdan saqlash uchun belgilanmagan joylarda hibsdan saqlash ham qonunga xilof ravishda hibsdan saqlash deb hisoblanadi. Bundan tashqari, diplomatik immunitetga ega bo‘lgan shaxslarni qamoqqa olish yoki hibsdan ushlab turish har qanday holatda ham noqonuniy hibsdan saqlab turish va shaxsning shaxsiy hayot daxlsizligini qonunga qilof ravishda buzish holatlari hisobladi.

Shaxsiy hayot daxlsizligi masalasida xalqaro huquqiy tajribaga nazar soladigan bo‘lsak, uning himoya qilish prinsiplari deyarli bir – biridan farq qilmasligi ko‘rinadi, biroq unda qo‘llaniladigan umumiy standartlar mamlakatlarda farq qiladi. Yevropa Ittifoqidagi shaxsiy hayot daxlsizlik huquqi qonunlari va ularni kafolatlash masalalari Qo‘shma Shtatlardagiga qaraganda ancha qat‘iyroq. Stivens ta‘kidlaganidek, “Yevropa Ittifoqining ma‘lumotlarni himoya qilish bo‘yicha direktivasi qonunchilik landshaftini yaratdi, unga ko‘ra har bir Yevropa Ittifoqiga a‘zo davlat direktivaning talqinini, mahalliy, madaniy va tijoratni aks ettiruvchi ma‘lumotlarni himoya qilish bo‘yicha mahalliy qonunlarni yaratishi shartligi belgilandi. Masalan, Germaniyada ma‘lumotlarni himoya qilish bo‘yicha qat‘iy qonunlar mavjud. Ba‘zi a‘zo davlatlar o‘zlarining tartibga solish yondashuvlarini qo‘lladilar, Fransiya va Germaniya esa ma‘lumotlar himoyasini buzganlik uchun qattiq jazolarni qo‘llash uslubidan bordi”. Shaxsiy hayot daxlsizlik huquqi so‘nggi bir necha yil ichida xalqaro inson huquqlari kontekstida tez-tez muhokama qilinib kelinadigan va xalqaro odatiy huquq sifatida e‘tirof etiladigan huquqqa aylandi.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, shaxsiy hayot daxlsizlik huquqining konstitutsiyaviy kafolatlarini mustahkamlash dolzarb muammodir. Yangi tahrirda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida hamda qonunchilik hujjatlarida shaxsga doir ma’lumotlarni olish, tarqatish, insonning qadr-qimmatini va sha’ni himoya qilish masalalari mukammal tarzda tasniflangan va ta’riflangan, qonun buzilishga qarshi jazo choralari ishlab chiqilgan. Shu bilan bir qatorda daxlsizlik huquqini yanada kafolatlash borasida raqamlashtirish sharoitida tartibga solishning barcha mavjud usullarini, jumladan texnologiyalar, ijtimoiy normalar va qonunchilikni qamrab oluvchi yondashuvlar, strategiyalar va vositalarni birlashtirish zarur.

